
IPAK QURTI BOQISH HAM OILAVIY MEHNAT, HAM QO'SHIMCHA DAROMAD

Shu kunlarida qishloq aholisining hayoti anchagina jonlanib qoldi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Tomorqalarda, shu bilan birga, dalalarimizda ekin-tekin ishlari qizg'in pallaga kirdi. Bobo dehqonlarimiz o'z yerlaridan samarali foydalanib, undan mo'l hosil olish uchun bor kuch-g'ayratlarini ishga solmoqdalar. Ayni kunlarda qishloq aholisida o'z oilasini moddiy manfaatdorligini oshirish uchun yana bir mas'uliyatli palla, ya'ni ipak qurti boqish va undan mo'l hosil olib, oilaviy daromadini oshirishi mumkin. Xalqimiz pillachilik bilan azaldan shug'ullanib keladi. Bugun ham yurtimizda ipak qurti boqish hadisini puxta o'zlashtirgan oilalar ko'p. Ular oddiy sharoitda ham har quti ipak qurtidan 65 kilogramdan oshirib sifatli hosil yetishtirish mumkinligini isbotlaganlar. Jahon ipak bozorida ipak mahsulotlariga bo'lgan talabning oshib borayotganligi o'z navbatida mamlakatimizda pilla yetishtirish hajmini bosqichma-bosqich oshirishni taqozo etmoqda. Pilla sifatini yaxshilash, boqilgan har bir quti qurtdan olinadigan pilla hosilini imkoniyati boricha oshirish bir qator agrotexnika va tashkiliy tadbirlarga amal qilishni talab etadi. Jonlanib chiqqan qurtlarni tarqatish va qurt boquvchilarga o'z vaqtida vaqtida yetkazib berish, uni o'z vaqtida parvarishlash pillachilikning eng mas'uliyatli jarayonlaridan hisoblanadi. Pillachilikdagi imkoniyatlardan samarali foydalanish, ayniqsa, qishloq aholisining juda ko'p qismi hozirgi kunda ishsizligini inobatga olsak, ipak qurti boqish ayni kunlarda qo'shimcha daromad olishning eng qulay manbai bo'ladi desak, aslo mubolag'a bo'lmaydi. Pillachilik oilaviy mehnatni talab etadi. Ipak qurti chilgi hosil, uni boqqan odamning xazinasiga baraka qo'shiladi. Ipak qurtining hayoti tom ma'noda ibrat ham. Ipak qurti o'zining hayotini garovga qo'yib pilla o'raydi va oxir oqibat harir kapalakka aylanadi. Bunda Yaratganning inoyati ko'p, o'zgacha bir ma'no bor. Hozir hech kimga oson emas, mehnat ko'ngilni yoritadi, kayfiyatni ko'taradi. Bugungi kunda tumanimizda ipak qurti parvarishi jadallik bilan davom etmoqda.

2022-05-14 18:37:00